

BIRJA VA UNING TURLARI

Birja so'zi [lotincha](#) va [olmoncha](#) so'zdan kelib chiqqan bo'lib „xamyon“ni bildiradi. Qadimda birja so'zi quyidagi 3 xil voqeylikni ifodalash uchun qo'llanilar edi. Birja (gollandcha beurs, nem. Burse — hamyon) — bozorni uyushtirishning tashkiliy shakli tovarlar (tovar birjasi), qimmatbaho qog'ozlar



(fond birjasi), valyuta (valyuta birjasi) ulgurji savdosi, Tovar bo'lgan ish kuchi oldi-sotdisi (mehnat birjasi) bozori. Aksariyat hollarda yopiq yoki ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etiladi. Birjaga birja qo'mitasi raxbarlik qiladi. Uning huzurida kotirovka komissiyasi ish olib boradi. Birjada brokerlar, dilerlar, treyderlar faoliyat ko'rsatadi. Birja va uning shakllari bozor mexanizmining zaruriy infratuzilmasi hisoblanadi.

BIRJANING TURLARI:

- 1) Tovar (xom ashyo) birjasi
- 2) Fond birjasi
- 3) Valyuta birjasi, Forex
- 4) Kirptovalyuta birjasi

Tovar (xom ashyo)birjasi ommaviy tovarlar (don, paxta, neft, metall va b.)ni standartlar yoki namunalar bo'yicha sotadi. Ayrim Birjalar faqat bir guruh tovarlar savdosi bo'yicha ixtisoslashadi. Kelishuvlar ma'lum muddatlarga tuziladi natijada tomonlar narxlar farqlaridan ko'p narsa yutishi yoki yutkazishi mumkin. Birja narxlari haqidagi ma'lumotlar kotirovka shaklida muntazam birja byulletenlarida e'lon qilib boriladi.

Fond birjasi - qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalar oldi-sotdi qilinadigan birja; pul kapitali harakatiga xizmat ko'rsatadigan moliya bozorining dastaklaridan biri. Bozor infratuzilmasining muhim bo'g'ini, qimmatli qog'ozlar (davlat obligatsiyalari, korxonalar aksiya va obligatsiyalari, bank kredit biletlari, tijorat veksellari), valyuta oldi-sotdisi bo'yicha muntazam va tashkiliy faoliyat ko'rsatadi.

BIRJA VA UNING TURLARI

Forex birjasi- bu valyuta bozori infratuzilmasining elementi bo'lib, bu yerda chet el valyutalarining oldi-sotti bitimlari amalga oshiriladi. Valyuta birjasining asosiy faoliyati savdoni tashkil etish va yuritish bo'yicha xizmatlarni taqdim etishdir. Asosiy vazifa bozor metodlari yordamida vaqtincha bo'sh bo'lib turgan valyuta resurslarini iqtisodiyotning turli sohalari o'rtasida taqsimlash, shuningdek qonuniy savdo sharoitida milliy va chet el valyutalarining haqiqiy bozor kursini o'rnatishdir. Foreks birjada eng asosiy savdo operatsiyasi bu valyutani sotib olishdir. Masalan, yevro (EUR)ni shveysariya franki (CHF)ga yoki yapon ienasi (JPY)ga sotib sotib olish savdoda foydalaniladigan hamma valyutalar birjada valyuta kursi suzuvchi valyuta juftliklari ko'rinishida ishtirok etadi.

Kripto-birja – kripto- ayirboshlash, sotib olish va sotish uchun elektron maydonchadan iborat bo'lgan tashkilot

Kriptovalyuta - kriptografik texnologiyalar bilan himoyalangan raqamli valyuta. Ushbu pul birligi faqat virtual makonda mavjud. Kriptovalyutada ayirboshlash elektron pochta orqali xat almashinish singari juda oson. Bu yerda vositachining yo'qligi va komission to'lovlar minimal darajada ekani tufayli operatsiyalarni qayta ishlashga bankdagiga qaraganda kam vaqt talab etiladi.

Ushbu ma'lumotlar ochiq internet manbalari hamda sohaga tegishli kitoblardan olindi.

BIZNING IJTIMOY TARMOQLARIMIZ



COSMIC.TRADING



COSMIC_TRADING



COSMIC TRADING

